



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA INTEGRATIV YONDASHUV ORQALI KRITIK FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHARTLARI

Zokirova Ma'suma Qahramonjon qizi
Turan International University, o'qituvchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida kritik fikrlash ko'nikmalarini integrativ yondashuv asosida rivojlantirishning pedagogik shartlari nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Fanlararo bog'lanish, muammoli ta'lim, refleksiv faoliyat va o'qituvchining metodik kompetensiyasi muhim omil sifatida tahlil qilinadi. Integrativ yondashuv o'quvchilarda tizimli, tahliliy va dalillangan fikrlashni shakllantirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan yoritiladi. Shu bilan bir qatorda boshlang'ich sinf o'quvchilarida kritik fikrlash ko'nikmalarini integrativ yondashuv asosida rivojlantirishga doir bir qator metodlar keltiriladi.

Kalit so'zlar: integrativ yondashuv, kritik fikrlash, pedagogik shartlar, fanlararo bog'lanish, refleksiya, boshlang'ich ta'lim.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА

Закирова Масума Кахрамонжон кизи
Turan International University, преподаватель

Аннотация

В данной статье теоретически анализируются педагогические условия развития навыков критического мышления у учащихся начальных классов на основе интегративного подхода. В качестве значимых факторов рассматриваются межпредметные связи, проблемное обучение, рефлексивная деятельность и методическая компетентность учителя. Научно обосновывается, что интегративный подход способствует формированию у учащихся системного, аналитического и аргументированного мышления. Наряду с этим приводится ряд методов, направленных на развитие навыков критического мышления у младших школьников на основе интегративного подхода..

Ключевые слова: интегративный подход, критическое мышление, педагогические условия, межпредметные связи, рефлексия, начальное образование.

PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR DEVELOPING CRITICAL THINKING SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH AN INTEGRATIVE APPROACH

Zokirova Ma'suma Qahramonjon qizi
Turan International University, Lecturer

Abstract

This article theoretically analyzes the pedagogical conditions for developing critical thinking skills in primary school students based on an integrative approach. Interdisciplinary connections, problem-based learning, reflective activity, and the methodological competence of the teacher are considered as significant factors. It is scientifically substantiated that the integrative approach contributes to the formation of systematic, analytical, and evidence-based thinking in

students. In addition, a number of methods aimed at developing critical thinking skills in primary school students through an integrative approach are presented.

Keywords: integrative approach, critical thinking, pedagogical conditions, interdisciplinary connections, reflection, primary education.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarda kritik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish dolzarb didaktik muammo hisoblanadi. XXI asr ta'lim paradigmasi reproduktiv bilimlarni o'zlashtirishdan ko'ra, ularni tahlil qilish, baholash va amaliy qo'llash kompetensiyalarini shakllantirishni talab etadi. Shu bois ta'lim mazmuniga integrativ yondashuvni tatbiq etish kritik fikrlashni rivojlantirishning samarali vositalaridan biri sifatida qaraladi. Integrativ yondashuv o'z mohiyatiga ko'ra, fanlararo bog'liqlikni kuchaytiradi, o'quv jarayonida turli bilim sohalarining uzviy aloqadorligini ko'rsatadi, bu esa o'z navbatida o'quvchilarda mantiqiy mushohada yurita olish, turli qarashlarni solishtira olish va xulosa qilish ko'nikmalarini shakllantirish imkonini yaratadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Amerikalik olim, kritik tafakkur nazariyasi va amaliyoti bo'yicha mutaxassis G. Paul kritik fikrlashni "tafakkur ustida tafakkur qilish", ya'ni insonning o'z tafakkurini rivojlantirish maqsadida fikrlash jarayonini o'rganishi deb tushuntiradi. Unga ko'ra, inson o'z tafakkur jarayonini yaxshilashga bo'lgan ehtiyojni his qilishi va fikrlashni baholash standartlaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi talab etiladi.

A. Krouford, S. Metyuz, D. Makkinster va V. Saul kritik fikrlashni nafaqat taxminlarni, balki faktlarni ham sinchkovlik bilan baholash orqali eng obyektiv xulosalarga olib boruvchi tafakkur jarayoni deb hisoblaydilar.

Turli yondashuvlarni umumlashtirib aytish mumkinki, pedagogik nuqtai nazardan kritik fikrlash dogmatik tafakkurning aksi bo'lib, u mustaqil, mantiqiy va ijodiy fikrlash jarayoni sifatida qaraladi. Kritik fikrlashning asosiy xususiyatlari:

- Individuallik va ijtimoiylik – har qanday fikr boshqalar bilan baham ko'rilganda tekshiriladi va asoslanadi;
- O'z nuqtayi nazarini anglash va himoya qilish qobiliyati;
- Yangi g'oyalarni topish va muammolarni Kritik tahlil qilish ko'nikmasi;
- Munozaralarda qatnashish, harakat va dalillarni qayta ko'rib chiqish, harakatlar oqibatlarini oldindan ko'ra bilish qobiliyati.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida integrativ yondashuv orqali kritik fikrlashni rivojlantirish quyidagi pedagogik shartlarni talab etadi:

1. *Fanlararo mazmuniy uyg'unlik.* Dars mazmuni umumiy tushunchalar asosida birlashtirilishi zarur. Bu o'quvchilarning bilimlarni tizimli qabul qilishiga yordam beradi.

2. *Muammoli-ta'limiy muhit yaratish.* Muammoli savollar, tadqiqot topshiriqlari va loyihaviy faoliyat o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi.

3. *Faol o'qitish metodlaridan foydalanish.* "Aqliy hujum", klaster, konseptual xarita, debat, PBL kabi metodlar o'quvchilarning dalillash va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

4. *Refleksiv faoliyatni tashkil etish.* Dars yakunida o'quvchilarning o'z faoliyatini baholashi, xatolarini aniqlashi va xulosa chiqarishi ta'minlanishi lozim.

5. *O'qituvchining integrativ kompetensiyasi.* O'qituvchi fanlararo aloqalarni ko'ra bilishi, darsni tizimli rejalashtirishi va o'quvchilarning fikrlash jarayonini boshqara olishi zarur.

Kritik fikrlash, avvalo, munozara, yozma ishlar va matn bilan faol ishlash jarayonida shakllanadi. Bu faoliyat turlari o'quvchilarga tanish bo'lib, ularni faqat biroz takomillashtirish talab etiladi.

"Savollar romashkasi", INSERT, Fishbone (baliq suyagi), bashoratlar daraxti,

denotativ graf, “+ – qiziqarli”, umumlashtiruvchi jadval, “Olti shlyapa”, diamanta, RAFT (rol, auditoriya, shakl, mavzu), aylana bo‘ylab yozish, “Xatoni tut”, “Qor parchalari maydoni”, “Yozma bahs” (kerak-kerak emas) metodi, “Ko‘p funksiyali ishlatish” metodi boshqalar.

1. “Yozma bahs” (kerak-kerak emas) metodi

Savol: Kitob o‘qishni muntazam odat qilish kerakmi yoki kerak emasmi?

Guruhlar fikri	bo‘lishi kerakmi, yoki kerak emasmi?
Ha, kerak	
Yo‘q, kerak emas	
Ha, kerak	
Yo‘q, kerak emas	
Ha, kerak	
Yo‘q, kerak emas	

2. “Ko‘p funksiyali ishlatish” metodi

Ko‘pincha, biror buyumdan foydalanishning bir nechta yo‘li bo‘ladi. Masalan, g‘isht odatda bino devorini qurishda ishlatiladi, ammo ba’zi odamlar uni eshik tirgak (eshik to‘xtatuvchi) sifatida ham ishlatishadi. Endi tasavvur qiling, sizda bir juft oyoq kiyim qutisi(oyoq kiyim solinadigan quti) bor.

Quyidagi maqsadlar uchun bu qutidan qanday foydalanishingiz mumkinligi haqida o‘ylang. Har bir vazifa uchun o‘z g‘oyangizni tavsiflab yozing.

1. Uy hayvonigiz uchun uy sifatida
2. Matematika darsida hajmni o‘rganish uchun
3. Nimadirdan maxsus narsani saqlash uchun idish sifatida
4. O‘yinning bir qismi sifatida
5. Tasviriy san’at loyihasida.

Kritik fikrlashni rivojlantirish faol, o‘quvchiga yo‘naltirilgan metodologiyalarni o‘z ichiga olgan puxta rejalashtirilgan ta’limiy faoliyatni talab etadi. Kritik fikrlashga qaratilgan didaktik strategiyalarni joriy etishda mustaqil o‘qish, hamkorlikda ishlash va o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishini rag‘batlantirish muhimdir. Bu esa “o‘qishni o‘rganish”, “hamkorlik qilishni o‘rganish”, muammolarni hal qilish va mustaqil loyihalar ustida ishlash kabi asosiy kompetensiyalarni rivojlantiruvchi metodologiyalarni qo‘llashni anglatadi.

Ta’lim jarayonida integrativ yondashuv bugungi didaktikaning eng muhim metodologik yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi.

Integrativ yondashuvning didaktik ahamiyati o‘quvchilarda quyidagi xususiyatlarni shakllantirish imkonini beradi:

- turli fanlardan olingan bilimlarni taqqoslash va umumlashtirish yordamida xulosalar chiqarish;
- o‘z fikrini asoslab berish va o‘zaro zid bo‘lgan fikrlarni tahlil qilish;
- muammoli vaziyatlarni keng qamrovli yondashuv asosida hal etish;
- dalillarga asoslangan holda qarorlar qabul qilish.

XULOSA

Integrativ yondashuv boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kritik fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning samarali pedagogik vositasi hisoblanadi. Fanlararo bog‘lanish asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarda tizimli tafakkur, mustaqil qaror qabul qilish va dalillangan fikr yuritish kompetensiyalarini shakllantiradi. Shu tufayli integrativ yondashuvni boshlang‘ich ta’lim jarayoniga izchil joriy etish ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Xodjiev F. O. O‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatish va uning muhim jihatlari // Zamonaviy ta’lim / Sovremennoe obrazovanie. – Toshkent, 2017. – № 6. – B. 43–47.

2. Кант И. Критика чистого разума / пер. с нем. Н. О. Лосского. – Москва: Академический проект, 2020. – 567 с.
3. Adizov B. R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari: ped. fan. dok. ... dis. – Toshkent, 2003. – 280 b.
4. Ennis R. H. The Nature of Critical Thinking: An Outline of Critical Thinking Dispositions and Abilities. – Illinois: University of Illinois, 2011.
5. Paul R., Elder L. Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning and Your Life. – Boston: Pearson, 2014.
6. Drake S. M., Reid J. Integrated Curriculum in the Primary Classroom: A Pedagogical Approach. – London: Routledge, 2018.